politeness strategiyalarini tushuntirishga qaratilgan. Bizning tadqiqotimizda esa mazkur ijtimoiy-pragmatik omillar verbal va neverbal vositalar bilan birgalikda yagona kommunikativ sistema tarkibida koʻrib chiqiladi.

Qiyosiy pragmatikaning keyingi rivojida Blum-Kulka, House va Kasper tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ham muhim oʻrin egallaydi [1]. Ularning ishlarida nutqiy aktlarning tillararo va madaniyatlararo variantlari, iltimosning turli darajadagi bilvositaligi, ijtimoiy masofa va kommunikativ vaziyat kabi parametrlar tahlil qilingan. Shu tariqa pragmatik ekvivalentlikning leksik ekvivalentlikdan farqli ravishda kontekst, kommunikativ maqsad va ijtimoiy munosabat bilan belgilanishiga ilmiy asos yaratilgan.

Bolgar tili materiallari asosida pragmatik hodisalarni tadqiq etishda Ivelina K. Tchizmarovaning ishlari alohida e'tiborga loyiq [9]. Muallif *Journal of Pragmatics* jurnalida 2005- yilda e'lon qilingan "Hedging functions of the Bulgarian discourse marker xajde" maqolasida bolgar tilidagi *xajde* diskurs markerining nutqiy akt va politeness nazariyasi nuqtayi nazaridan pragmatik vazifalarini tahlil qilgan. Tadqiqotda *xajde*ning buyruq, iltimos, maslahat, taklif, ogohlantirish, va'da kabi harakatlarni boshlashda, shuningdek, xayrlashuvda muloqotni yakunlash vositasi sifatida qoʻllanishi koʻrsatilgan.

Bu natija biz uchun muhim, chunki bitta leksik-diskursiv birlik turli kommunikativ vaziyatlarda turli pragmatik funksiyalarni bajarishi mumkinligini koʻrsatadi. Demak, pragmatik tahlilda muayyan birlikning lugʻaviy ma'nosidan koʻra uning konkret vaziyatdagi kommunikativ vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bizning tadqiqotimizda taklif etilayotgan "kommunikativ niyat → pragmatik vaziyat → verbal/neverbal belgi → ijtimoiy-informativ qiymat" munosabatini asoslash uchun muhim nazariy nuqtadir.

Bolgar tilida nutqiy aktlarni qiyosiy-pragmatik oʻrganishning yana bir muhim namunasi Deyana Peneva tadqiqotlarida kuzatiladi. Peneva 2017- yilda *Studies in Linguistics, Culture and FLT* jurnalida e'lon qilgan "The Use of Commissive Speech Acts in English and Bulgarian and Their Politeness Implication" maqolasida ingliz va bolgar tillaridagi komissiv nutqiy aktlarni, xususan, *agree* fe'lining bolgar tilidagi ekvivalentlarini grammatik, propozisional va pragmatik ma'no nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Tadqiqotda bolgar media diskursi va British National Corpus materiallari asosida miqdoriy va sifatiy tahlil amalga oshirilgan [5].

Peneva tadqiqotining muhim jihati shundaki, u nutqiy aktning pragmatik ma'nosini uning grammatik va propozisional xususiyatlaridan ajratmagan holda oʻrganadi hamda kommunikativ tanlovning politeness bilan bogʻliq jihatlarini koʻrsatadi. Bu yondashuv biz uchun pragmatik ekvivalentlikni birgina soʻz yoki konstruksiya darajasida emas, balki uning kommunikativ vazifasi va ijtimoiy qiymati bilan birgalikda tadqiq etish zarurligini koʻrsatadi.

Shuningdek, bolgar tilida pragmatik ma'noning diskursiv vositalar orqali ifodalanishi Silvia Petkovaning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Uning 2025- yilda e'lon qilingan "Pragmatic Aspects of the Translation of Russian Discourse Formulas of Objection into Bulgarian" maqolasida rus tilidagi *Da nu (tebya)* va *Da ladno (tebe)* kabi ekspressiv formulalarning bolgar tilidagi pragmatik ifodasi tahlil qilingan. Tadqiqotda bir xil formula turli vaziyatlarda kuchli yoki yumshoq e'tirozni, shuningdek, shaxsiy malomatni ifodalashi mumkinligi koʻrsatilgan [6].

Ushbu tadqiqotlar bolgar tilida pragmatik ma'noning kontekstual, diskursiv va kommunikativ xususiyatini koʻrsatadi. Biroq ularda pragmatik ekvivalentlikning oʻzbek tili bilan toʻgʻridan-toʻgʻri qiyosi mavjud emas. Ayniqsa, bir xil kommunikativ niyatning ikki tilda verbal va neverbal komponentlar kombinasiyasi orqali amalga oshishi hamda bu komponentlarni yagona pragmatik sistema sifatida modellashtirish masalasi hali yetarlicha ochilmagan.

Oʻzbek tilshunosligida pragmatik yondashuv, nutqiy muloqot, nutq etiketi va nutqiy aktlar masalalari keyingi yillarda izchil tadqiq etilmoqda. Xususan, Guli Toirovaning oʻzbek nutqiy muloqotida sistemalilik va informativlik masalalariga bagʻishlangan tadqiqotida pragmalingvistikaning mustaqil yoʻnalish sifatida shakllanishi, muloqot sistemasi va nutqiy etiket masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [10,11].

Toirova va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan situational pragmatic system konsepsiyasi mazkur tadqiqot uchun bevosita ahamiyatga ega. Ularda pragmatik sistemaning markazida verbal va neverbal kommunikativ vositalar joylashishi, ular bilan birga ijtimoiy xarakterdagi boshqa vositalar ham kommunikativ vazifani shakllantirishda ishtirok etishi koʻrsatiladi. Mualliflar bunday sistema elementlari oʻrtasida simmetrik va asimmetrik munosabatlar mavjud boʻlishi mumkinligini ham ta'kidlaydilar.

Mazkur nazariy yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun alohida ahamiyatga ega, chunki izosign konsepsiyasining asosiy metodologik poydevori aynan pragmatik sistemadagi verbal va neverbal elementlarning umumiy kommunikativ vazifa atrofida birlashishi bilan bogʻliq. Shu nuqtayi nazardan, yangi tadqiqot mavjud pragmatik sistema konsepsiyasini tillararo qiyos doirasiga olib chiqish va uni oʻzbek–bolgar materiallari asosida funksional jihatdan modellashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbek tilidagi alohida nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari ham so‘nggi tadqiqotlarda faol o‘rganilmoqda. Masalan, Toirova va Oripovaning minnatdorlik nutqiy aktiga bag‘ishlangan tadqiqotida minnatdorlikning bir nechta pragmatik ma'nolari, jumladan, samimiy munosabatni ifodalash, muloqotni yakunlash va kelishuvga erishish kabi vazifalari tahlil qilingan. Mualliflar verbal vositalar bilan birga neverbal vositalarning turli tillarda farq qilishini ham ta'kidlaydilar [16].

Shuningdek, Toirova va boshqalar tomonidan xayrlashuv nutqiy aktining semiotik tahlilida xayrlashuv muloqotni yakunlashning oddiy shakli emas, balki nutq odobining alohida kommunikativ darajasi ekani va uning pragmatik xususiyati muhim ekani asoslangan [14].

O‘zbek tilining qiyosiy pragmatikasi doirasida ingliz–o‘zbek tillari misolida ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, 2025- yildagi Turgunova tadqiqotida iltimos, uzr va kompliment kabi nutqiy aktlar Brown va Levinsonning politeness modeli asosida qiyoslangan; tadqiqotda o‘zbek muloqotida kontekstual belgilar, hurmat shakllari va madaniy jihatdan asoslangan bilvositalikning muhimligi ko‘rsatilgan.

So‘nggi tadqiqotlarda o‘zbek tilidagi nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari yanada aniqlashtirilmoqda. Masalan, Sabirova 2026- yilda ingliz va o‘zbek tillaridagi emosional birliklarni nutqiy aktlar va kommunikativ strategiyalar nuqtayi nazaridan 680 ta autentik kommunikativ vaziyat asosida tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari pragmatik kuch kontekst, madaniy me'yor va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi [7].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmatik ekvivalentlik masalasi bir necha yo‘nalishda yetarlicha o‘rganilgan: nutqiy aktlar nazariyasi, politeness strategiyalari, madaniyatlararo kommunikasiya, diskurs markerlari va alohida nutqiy aktlarning qiyosiy tahlili. Bolgar tili bo‘yicha tadqiqotlarda nutqiy aktlar, diskurs markerlari va politenessning pragmatik xususiyatlari; o‘zbek tilida esa nutqiy muloqot, nutq etiketi, minnatdorlik, xayrlashuv va boshqa kommunikativ aktlarning pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlilida o‘zbek va bolgar tillarida bir xil kommunikativ maqsadning turli verbal va neverbal vositalar orqali amalga oshishini yagona pragmatik sistema sifatida qiyosiy modellashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotni aniqlamadik. Ayniqsa, verbal belgi va neverbal belgi o‘rtasidagi kompensator munosabat, ularning umumiy ijtimoiy-informativ qiymati va turli shakllarning yagona funksional-pragmatik vazifa asosida birlashishi maxsus nazariy kategoriya orqali yetarli darajada tavsiflanmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda izosign tushunchasini pragmatik ekvivalentlikni ifodalovchi nazariy kategoriya sifatida qo‘llash taklif etiladi. Ushbu yondashuv mavjud nutqiy akt va politeness nazariyalarini inkor etmaydi, balki ularni tillararo verbal–neverbal funksional ekvivalentlik nuqtayi nazaridan kengaytiradi. Shu asosda keyingi bo‘limda izosignning nazariy modeli va uning “Communicative Intention → Pragmatic Situation → Verbal Sign + Non-verbal Sign → Socio-informational Value → Pragmatic Equivalence → ISOSIGN” zanjiri asoslab beriladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari o‘zbek va bolgar tillarida bir xil kommunikativ maqsadning turli verbal va neverbal vositalar orqali ifodalanishi tashqi shakldagi farqlarga qaramasdan, ularning umumiy funksional-pragmatik qiymati asosida yagona pragmatik sistema sifatida talqin qilinishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bunda kommunikativ maqsad, pragmatik vaziyat, verbal va neverbal belgilar, ijtimoiy-informativ qiymat hamda pragmatik ekvivalentlik o‘zaro bog‘liq bosqichlar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur munosabatlarni tizimlashtirish natijasida tadqiqotning asosiy nazariy modeli sifatida quyidagi zanjir taklif etiladi:

Communicative Intention → Pragmatic Situation → Verbal Sign + Non-verbal Sign → Socio-informational Value → Pragmatic Equivalence → ISOSIGN

Ushbu model izosignni oddiy til birligi yoki muayyan nutqiy akt bilan tenglashtirmasdan, turli shakldagi verbal va neverbal vositalarning umumiy kommunikativ maqsad va ijtimoiy-informativ qiymat asosida birlashuvini ifodalovchi funksional-pragmatik kategoriya sifatida belgilash imkonini beradi.

Modelning birinchi bosqichi Communicative Intention, ya'ni kommunikativ niyatdan iborat. Har qanday pragmatik harakat muayyan maqsadga yo‘naltiriladi. Salomlashishda muloqotni boshlash va suhbatdoshga ijtimoiy munosabatni bildirish, minnatdorlikda olingan yordam yoki e'tiborni e'tirof etish, uzr so‘rashda esa noqulaylik yoki xatoni tan olish va munosabatni me'yorlashtirish asosiy kommunikativ niyatni tashkil etadi.

Biroq kommunikativ niyatning o‘zi muayyan til birligining pragmatik qiymatini belgilab bermaydi. U Pragmatic Situation, ya'ni pragmatik vaziyat bilan o‘zaro ta'sirga kirishadi. Pragmatik vaziyat

suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi, yoshi, o‘zaro munosabati, muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, vaqt va makon, muloqot mavzusi hamda milliy-madaniy me'yorlar kabi omillarni qamrab oladi.

Shu bois bir xil kommunikativ niyat turli vaziyatlarda turlicha realizasiya qilinishi mumkin. Masalan, hurmat bildirish maqsadi rasmiy muloqotda maxsus verbal formula orqali, norasmiy muloqotda esa qisqa murojaat, intonasiya yoki neverbal harakat orqali ifodalanishi mumkin. Demak, izosignning shakllanishida kommunikativ niyat universal komponent bo‘lsa, uning konkret ifodalanish shaklini pragmatik vaziyat belgilaydi.

Modelning keyingi bosqichini Verbal Sign + Non-verbal Sign tashkil etadi. Pragmatik kommunikasiyada verbal va neverbal vositalar bir-biridan mutlaqo mustaqil holda emas, balki ko‘p hollarda bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek muloqot madaniyatida salomlashish, minnatdorlik bildirish, xayrlashish yoki hurmat ifodalashda so‘z bilan bir qatorda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish, bosh egish, tabassum qilish, qo‘l berib ko‘rishish kabi kinesik vositalar ishtirok etishi mumkin. Bolgar tilida ham salomlashish, minnatdorlik, xayrlashish va boshqa kommunikativ harakatlarda verbal formula bilan birga qo‘l berib ko‘rishish, tabassum, nigoh va boshqa ijtimoiy-madaniy jihatdan shartlangan harakatlar qo‘llanishi mumkin.

Bu yerda muhim jihat shundaki, mazkur vositalarning barchasi bir xil darajada majburiy emas. Muayyan vaziyatda verbal komponent ustun bo‘lishi, boshqa vaziyatda esa neverbal komponent kommunikativ ma'noni kuchaytirishi yoki qisman uning o‘rnini bosishi mumkin. Shu xususiyat kompensator munosabat tushunchasini ilgari surish imkonini beradi.

Masalan, verbal hurmat formulasi qisqa shaklda qo‘llanganda uning pragmatik ta'siri intonasiya, yuz ifodasi yoki kinesik harakat bilan kuchaytirilishi mumkin. Aksincha, ayrim vaziyatlarda verbal vosita minimal darajada bo‘lsa ham, neverbal vosita kommunikativ munosabatning asosiy qismini ifodalaydi. Demak, pragmatik sistema tarkibidagi bir komponentning kuchsizlanishi yoki mavjud emasligi boshqa komponentlar hisobiga qoplanishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, izosignni tashkil etuvchi belgilar shakliy jihatdan bir xil bo‘lishi shart emas; ularning birlashish mezoni umumiy pragmatik vazifadir.

3. Ijtimoiy-informativ qiymat izosignni belgilovchi asosiy mezon sifatida

Tadqiqotda taklif etilayotgan modelning eng muhim bosqichlaridan biri Socio-informational Value, ya'ni ijtimoiy-informativ qiymatdir. Mazkur tushuncha kommunikativ birlikning lug‘aviy yoki grammatik ma'nosidan kengroq bo‘lib, uning muloqot ishtirokchilari o‘rtasida qanday ijtimoiy munosabatni shakllantirishi yoki ifodalashini belgilaydi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “Rahmat” va bolgar tilidagi “Blagodarya” shaklan va fonetik jihatdan bir-biriga o‘xshash emas. Biroq ular muayyan kommunikativ vaziyatda minnatdorlikni bildirish, suhbatdoshning harakatini e'tirof etish va ijobiy ijtimoiy munosabatni mustahkamlash kabi umumiy vazifani bajaradi. Demak, ularning umumiyligi formal emas, balki funksional-pragmatik xususiyatga ega.

1-jadval. O‘zbek va bolgar tillarida salomlashishning konkret verbal shakllari

Komponent	O‘zbek tili	Bolgar tili	Umumiy pragmatik qiymat
Verbal belgi	*Assalomu alaykum, Salom, Assalom*	*Zdraveyte, Zdravey, Dob'r den*	Muloqotni boshlash
Neverbal belgi	Qo‘l berish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish, bosh egish, tabassum	Qo‘l berish, tabassum, bosh harakati	Ijtimoiy yaqinlik/hurmat
Pragmatik maqsad	Muloqotni boshlash, hurmat bildirish	Muloqotni boshlash, hurmat/ijtimoiy munosabatni belgilash	Kommunikativ aloqani o‘rnatish
Ijtimoiy-informativ qiymat	Hurmat, samimiylik, ijtimoiy munosabat	Hurmat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabat	Ijobiy kommunikativ munosabat
Izosign holati	Mavjud	Mavjud	Pragmatik ekvivalentlik

Xuddi shu holat xayrlashuv formulalarida ham kuzatiladi. O‘zbek tilidagi “Xayr”, “Ko‘rishguncha”, “Omon bo‘ling” kabi birliklar hamda bolgar tilidagi “Dovijdane” kabi formulalar turli leksik vositalardan

tashkil topgan bo‘lsa-da, muayyan vaziyatda muloqotni yakunlash, suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatni saqlash va keyingi muloqot imkoniyatini nazarda tutish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi.

Shunday qilib, ijtimoiy-informativ qiymat tillararo pragmatik ekvivalentlikni aniqlashda asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur nazariy xulosani salomlashuv nutqiy akti misolida aniqroq ko‘rsatish mumkin. Salomlashish har ikki tilda ham muloqotni boshlashga xizmat qiladi, biroq uning verbal va neverbal realizasiyasi pragmatik vaziyatga qarab farqlanadi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va bolgar tillarida salomlashishning konkret verbal shakllari bir-biriga teng emas. Shu bilan birga, ular muayyan kommunikativ vaziyatda bir xil umumiy maqsadni amalga oshiradi. Shuning uchun ularni leksik ekvivalentlar sifatida emas, balki pragmatik ekvivalentlar sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Bunda neverbal komponentlar ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, verbal salomlashuvga qo‘shilgan tabassum yoki qo‘l berish kommunikativ harakatning ijtimoiy-informativ qiymatini kuchaytirishi mumkin. Demak, izosign bitta so‘zga emas, balki verbal belgi + neverbal belgi + pragmatik vaziyat + kommunikativ maqsad birligiga asoslanadi.

Minnatdorlik nutqiy akti ham o‘zbek va bolgar tillarida izosignni aniqlash uchun qulay materialdir. O‘zbek tilida “Rahmat”, “Katta rahmat”, “Tashakkur” kabi formulalar, bolgar tilida esa “Blagodarya” va uning kontekstual variantlari minnatdorlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Bu birliklarning lug‘aviy shakli turlicha bo‘lsa-da, ularning pragmatik vazifasi muayyan umumiylikka ega:

ijobiy harakat → uni e'tirof etish → minnatdorlik → ijtimoiy munosabatni mustahkamlash.

Shuningdek, minnatdorlikning kuchli yoki kuchsiz ifodalanishi faqat leksik vositaga bog‘liq emas. Intonasiya, tabassum, nigoh, bosh harakati va vaziyat kabi neverbal va ekstralingvistik omillar ham uning pragmatik kuchini o‘zgartirishi mumkin.

Shu sababli:

“Rahmat” ≠ “Blagodarya” – shakliy tenglik nuqtayi nazaridan;
“Rahmat” ≈ “Blagodarya” – kommunikativ-funksional qiymat nuqtayi nazaridan.

Bu munosabatni aynan pragmatik ekvivalentlik tushunchasi bilan ifodalash mumkin.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri – pragmatik sistema elementlari o‘rtasida kompensator munosabat mavjudligini nazariy jihatdan asoslashdir.

Agar kommunikativ vaziyatda muayyan verbal komponent to‘liq namoyon bo‘lmasa, uning pragmatik funksiyasi boshqa verbal vosita yoki neverbal komponent tomonidan qisman yoki to‘liq kompensasiya qilinishi mumkin. Bunda kommunikativ maqsad saqlanib qoladi.

Ushbu jarayonni shartli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:

Verbal Sign ↓ + Non-verbal Sign ↑ → Socio-informational Value = Constant

Ya'ni verbal komponentning pragmatik yuklamasi kamayganda neverbal komponentning kommunikativ ahamiyati ortishi mumkin va natijada umumiy ijtimoiy-informativ qiymat saqlanadi.

Bu holat izosignni oddiy “ikki tildagi bir xil ma'noli so‘zlar” dan farqlaydi. Izosign uchun muhim bo‘lgan narsa muayyan shaklning saqlanishi emas, balki kommunikativ funksiyaning saqlanishidir.

Izosignni to‘g‘ri belgilash uchun uni pragmatik sistema va nutqiy akt tushunchalaridan farqlash zarur.

2-jadval.

Tushuncha	Asosiy obyekt	Asosiy vazifa
Nutqiy akt	Muayyan kommunikativ harakat	Nutq orqali harakatni amalga oshirish
Pragmatik sistema	Kommunikativ vaziyatdagi o‘zaro bog‘liq komponentlar	Kommunikasiyaning umumiy tashkil etilishi
Pragmatik ekvivalentlik	Turli tillardagi kommunikativ realizasiyalar	Umumiy funksional qiymatni aniqlash
Izosign	Turli verbal va neverbal belgilarning umumiy pragmatik qiymati	Ularni yagona funksional-pragmatik kategoriya sifatida birlashtirish

Shundan kelib chiqib, nutqiy akt – harakat**,** pragmatik Sistema – harakat amalga oshadigan o‘zaro bog‘liq muhit**,** pragmatik ekvivalentlik – turli tillardagi funksional mushtaraklik**,** izosign esa shu mushtaraklikni belgilaydigan nazariy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Bu farq maqolaning nazariy yangiligini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalariga koʻra, oʻzbek va bolgar tillaridagi kommunikativ birliklarni qiyoslashda uch xil munosabatni ajratish mumkin:

Formal farq + pragmatik umumiylik – turli til shakllari bir xil kommunikativ maqsadni amalga oshiradi.

Verbal farq + neverbal kompensasiya – bir tilda verbal vosita ustun boʻlsa, boshqasida uning kommunikativ qiymati neverbal vosita bilan kuchaytiriladi yoki qoplanadi.

Shakliy va madaniy farq + funksional ekvivalentlik – milliy-madaniy realizasiya turlicha boʻlsa-da, ijtimoiy-informativ vazifa saqlanadi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romanida Kumushning salom berishi bilan bogʻliq juda muhim epizodga e'tiborni karataylik: “Kumush uyalib zoʻrgʻagʻina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinigʻa kelib boʻyin egdi. Hoji qoʻli bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayigʻa tegizib olgʻan oʻz qoʻlini oʻpdi”.

Bu epizod bizning “izosign” konsepsiyamiz uchun juda kuchli empirik misol boʻla oladi. Chunki bu yerda salomlashuv faqat “salom berdi” degan verbal harakat bilan cheklanmaydi; uyalish, boʻyin egish, yelkaga qoqish, qoʻlni oʻpish kabi kinesik harakatlar ham kommunikativ ma'noni shakllantiradi.

Bu epizodni nutqiy akt → pragmatik vaziyat → verbal belgi → neverbal belgi → ijtimoiy-informativ qiymat → izosign tamoyilida tahlil qilish mumkin.

1. Kommunikativ niyat

Kumushning asosiy kommunikativ niyati – yangi ijtimoiy munosabatga kirishish va qaynotaga nisbatan hurmatni ifodalash.

Bu yerda “salom berish” oddiy axborot uzatish emas. U ijtimoiy munosabatni belgilaydigan fatik nutqiy akt vazifasini bajaradi. Kumush oʻzining Yusufbek hoji bilan birinchi marta yuzma-yuz kelganini hisobga olgan holda, muloqotni hurmat asosida boshlaydi.

Shuning uchun:

Communicative Intention = muloqotni boshlash + hurmat bildirish + ijtimoiy maqomni tan olish.

Kumushning keyingi harakati – “boʻyin egdi” – ushbu kommunikativ niyatni yanada aniqlashtiradi. Ya'ni verbal “salom” ning pragmatik mazmuni kinesik harakat orqali kuchaytirilgan.

2. Pragmatik vaziyat

Epizodning pragmatik vaziyati juda muhim. Bu oddiy ikki kishining uchrashuvi emas, balki kelinning qaynota bilan ilk bor koʻrishuvi.

Tadqiqotlarda ham mazkur epizod qaynota-kelinning ilk koʻrishuvi sifatida tahlil qilingan va “boʻyin egmoq”, “yelkasiga qoqib suymoq”, “qoʻlini oʻpmoq” kabi harakatlar milliy-etnik va madaniy informasiya tashishi ta'kidlangan.

Demak, pragmatik vaziyatni quyidagicha modellashtirish mumkin:

Kelin → qaynota

birinchi uchrashuv → oilaviy munosabat → yuqori ijtimoiy maqom → hurmat talabi.

Shuning uchun Kumushning “salom”i neytral salomlashuv emas, balki ijtimoiy maqomlar bilan shartlangan salomlashuv hisoblanadi.

3. “Uyalib zoʻrgʻagʻina” – pragmatik modifikator

Menimcha, maqolamiz uchun eng qiziq nuqtalardan biri aynan shu:

“Kumush uyalib zoʻrgʻagʻina salom berdi...”

Bu yerda “salom berdi” – verbal nutqiy harakat, “uyalib”, “zoʻrgʻagʻina” esa uning pragmatik holatini belgilaydi.

Agar matndan “uyalib zoʻrgʻagʻina” qismini olib tashlasak:

Kumush salom berdi.

degan neytral axborot qoladi.

Ammo:

Kumush uyalib zoʻrgʻagʻina salom berdi.

shaklida salomning pragmatik kuchi ochiladi: uyatchanlik, tortinish, hurmat va emosional holat bir vaqtning oʻzida ifodalanadi.

Shuning uchun “uyalib zoʻrgʻagʻina”ni biz pragmatik modifikator sifatida talqin qilishimiz mumkin.

4. Verbal belgi

Epizodda asosiy verbal belgi:

“salom berdi”

Bu salomlashuv nutqiy aktidir.

Biroq Qodiriy uni mustaqil holda qo‘llamagan. Uning atrofidagi kinesik harakatlar bilan birgalikda tasvirlagan:

salom berdi → bo‘yin egdi

Demak, verbal va neverbal belgilar bir-birini to‘ldirmoqda.

Bu holat bizning nazariy modelimizda:

Verbal Sign + Non-verbal Sign

bosqichiga to‘g‘ri keladi.

5. “Bo‘yin egdi” – neverbal pragmatik belgi

“Bo‘yin egish” bu yerda oddiy jismoniy harakat emas.

Uning pragmatik qiymati:

hurmat;

kattaga ehtirom;

ijtimoiy maqomni tan olish;

muloqotdagi ierarxik munosabatni qabul qilish;

kelinning odob me'yoriga amal qilishi

kabi ma'nolarni bir vaqtda ifodalaydi.

Eng muhimi, bu ma'nolarni “salom” so‘zining lug‘aviy ma'nosidan to‘liq anglab bo‘lmaydi. Ular aynan vaziyat va kinesik harakat orqali yuzaga chiqadi.

Shu sababli bu misol pragmatik sistema tushunchasi uchun juda muhim.

6. Yusufbek hojining javob harakati

Kumushning salomlashuvi bir tomonlama emas. Yusufbek hoji ham o‘zining kinesik harakatlari bilan javob qaytaradi:

“Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig‘a tegizib olg‘an o‘z qo‘lini o‘pdi...”

Bu yerda ham verbal vositadan ko‘ra neverbal kommunikasiya ustun.

Yusufbek hojining harakatlari:

yelkaga qoqish → mehr/qabul qilish

qo‘lini peshonaga tekkizish → duo/otalarcha munosabat

o‘z qo‘lini o‘pish → kelinni e'zozlash va uning hurmatini qabul qilish

kabi pragmatik qiymatlarni yuzaga chiqaradi.

Bu juda muhim nuqta: Kumush hurmatni ifodalaydi, Yusufbek hoji esa hurmatni qabul qilgan holda mehr va rozilik bilan javob beradi.

Shunday qilib, bu yerda:

hurmat → qabul qilish → mehr → ijtimoiy munosabatni mustahkamlash

zanjiri hosil bo‘ladi.

7. Ijtimoiy-informativ qiymat. Epizodning umumiy socio-informational valuesini quyidagicha belgilash mumkin:

3-jadval.

Belgi	Turi	Pragmatik qiymati
“salom berdi”	Verbal	Muloqotni boshlash
“uyalib”	Emosional-pragmatik	Tortinish, hurmat
“zo‘rg‘ag‘ina”	Pragmatik modifikator	Uyatchanlik, ehtiyotkorlik
“bo‘yin egdi”	Kinesik	Hurmat, ehtirom
“yelkasiga qoqib suydi”	Kinesik	Mehr, qabul qilish
“qo‘lini ... o‘pdi”	Kinesik-ramziy	Duo, e'zoz, otalarcha munosabat

Shunday qilib, bitta “salomlashuv” kommunikativ akti bir nechta verbal va neverbal belgilar majmuasi orqali realizasiya qilingan.

8. Kompensator munosabat. Bu misolda bizning izosign konsepsiyamiz uchun eng muhim nazariy xulosa kelib chiqadi.

“Salom berdi” ning o‘zi Kumushning butun kommunikativ niyatini ifodalash uchun yetarli emas.

Agar faqat:

“Kumush salom berdi”, desak, biz salomlashuv faktini bilamiz, xolos.

Ammo:

“Kumush uyalib zo‘rg‘ag‘ina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinig‘a kelib bo‘yin egdi”, deyilganda, hurmat, uyatchanlik va ijtimoiy munosabat ham namoyon bo‘ladi.

Demak:


Verbal Sign + Kinesic Sign → Enhanced Pragmatic Value

Bu yerda neverbal belgi verbal belgining pragmatik mazmunini kompensasiyalaydi va kuchaytiradi.

Bu holatni maqolamizda pragmatik komplementarlik deb ham atashimiz mumkin. Menimcha, “kompensator munosabat” bilan birga “komplementar pragmatik munosabat” atamasini kiritish ilmiy jihatdan yanada ehtiyotkor bo‘ladi: chunki bu misolda neverbal vosita verbal vositaning o‘rnini to‘liq bosmayapti, balki uning pragmatik qiymatini to‘ldiryapti va kuchaytiryapti.

9. Izosign nuqtayi nazaridan modellashtirish

Endi bu misolni bizning asosiy formulamizga joylashtirsak:



1-rasm.

Demak, bu yerda “salom”ning o‘zi izosign emas. Aksincha:

salom + uyalib zo‘rg‘ag‘ina + bo‘yin egish + pragmatik vaziyat + ijtimoiy-informativ qiymat

birgalikda izosignal kompleksni hosil qiladi.

A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Kumushning Yusufbek hoji bilan ilk ko‘rishuvi pragmatik ekvivalentlikning verbal va neverbal komponentlar birligida namoyon bo‘lishini ko‘rsatuvchi muhim empirik materialdir. “Kumush uyalib zo‘rg‘ag‘ina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinig‘a kelib bo‘yin egdi” tasvirida “salom berdi” verbal nutqiy aktni, “uyalib”, “zo‘rg‘ag‘ina” birliklari uning emosional-pragmatik modifikasiyasini, “bo‘yin egdi” esa milliy-madaniy xususiyatga ega kinesik belgini ifodalaydi. Shuningdek, Yusufbek hojining Kumushning yelkasiga qoqib suyushi va uning peshonasiga tegizgan qo‘lini o‘pishi kommunikativ harakatning ikkinchi tomonida mehr, qabul qilish, e'zoz va otalarcha munosabatni ifodalovchi neverbal vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, mazkur epizodda kommunikativ maqsad faqat verbal “salom” birligi orqali emas, balki verbal, kinesik va emosional-pragmatik vositalarning o‘zaro integrasiyasi asosida yuzaga keladi. Bu holat izosignni muayyan til birligi emas, balki umumiy kommunikativ maqsad va ijtimoiy-informativ qiymat atrofida birlashgan verbal–neverbal belgilar kompleksi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu asosda pragmatik ekvivalentlikni quyidagi ko‘rinishda umumlashtirish mumkin:

Pragmatic Equivalence = Common Communicative Intention + Functional Similarity + Socio-informational Correspondence

Biroq bu yerda “similarity” tushunchasi absolyut bir xillikni emas, funksional muvofiqlikni anglatadi. Chunki o‘zbek va bolgar tillarida bir xil kommunikativ maqsad milliy-madaniy me'yorlar ta'sirida turlicha realizasiya qilinishi tabiiydir.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari izosignni tillararo shakliy o‘xshashlik emas, balki pragmatik funksiya, ijtimoiy-informativ qiymat va kommunikativ maqsad mushtarakligi asosida belgilanadigan yangi nazariy kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu yondashuv o‘zbek va bolgar tillari materiallarini qiyosiy o‘rganishda verbal va neverbal vositalarni bir butun kommunikativ sistema sifatida tahlil qilish imkonini kengaytiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o‘zbek va bolgar tillarida bir xil kommunikativ maqsadning turli verbal va neverbal vositalar orqali amalga oshirilishi ularning shakliy farqlariga qaramasdan, umumiy funksional-pragmatik qiymat asosida qiyoslanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Mazkur holat pragmatik ekvivalentlikni faqat leksik yoki grammatik muvofiqlik doirasida emas, balki kommunikativ maqsad, pragmatik vaziyat, verbal va neverbal belgilar hamda ularning ijtimoiy-informativ qiymati birligida tadqiq etish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotda taklif etilgan “Communicative Intention → Pragmatic Situation → Verbal Sign + Non-verbal Sign → Socio-informational Value → Pragmatic Equivalence → ISOSIGN” modeli pragmatik ekvivalentlikni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Modelga ko‘ra, kommunikativ maqsad muayyan pragmatik vaziyatda verbal va neverbal belgilar majmuasi orqali realizasiyalanadi. Ushbu belgilarning umumiy ijtimoiy-informativ qiymati turli tillardagi kommunikativ vositalar o‘rtasidagi funksional-pragmatik muvofiqlikni belgilaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, verbal va neverbal belgilar o‘rtasidagi munosabat faqat qo‘shimchalik emas, balki ayrim hollarda kompensator va komplementar xususiyatga ham ega. Verbal vositaning pragmatik mazmuni neverbal harakat, mimika, kinesika, intonasiya yoki vaziyat komponentlari orqali kuchaytirilishi, to‘ldirilishi yoki qisman kompensasiya qilinishi mumkin. Shu jihatdan pragmatik ma'noni faqat til birligi doirasida tahlil qilish kommunikativ mazmunning bir qismini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin.

A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumushning salomlashuvi misoli tahlil qilinganda, “salom berdi” verbal belgisi “uyalib zo‘rg‘ag‘ina”, “bo‘yin egdi” kabi emosional-pragmatik va kinesik vositalar bilan birgalikda qo‘llanib, hurmat, uyatchanlik, odob, ijtimoiy maqomni tan olish kabi qo‘shimcha ijtimoiy-informativ qiymatlarni shakllantirishi aniqlandi. Demak, mazkur holatda pragmatik mazmun bitta verbal birlik emas, balki verbal–neverbal belgilar kompleksi orqali yuzaga keladi.

Shu asosda tadqiqotda izosign tushunchasini pragmatik ekvivalentlikni ifodalovchi nazariy kategoriya sifatida qo‘llash taklif etildi. Izosignni shaklan bir xil yoki leksik jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent bo‘lgan til birliklari emas, balki turli verbal va neverbal shakllarning umumiy kommunikativ maqsad va ijtimoiy-informativ qiymat asosidagi funksional birligi sifatida belgilash mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, izosign tushunchasi nutqiy akt nazariyasi, politeness strategiyalari va madaniyatlararo pragmatika yondashuvlarini inkor etmaydi; aksincha, ularni tillararo verbal–neverbal funksional ekvivalentlik nuqtayi nazaridan kengaytiradi. Izosignning asosiy farqlovchi belgisi uning muayyan shaklga emas, balki kommunikativ funksiyaning saqlanishiga asoslanishidir.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, pragmatik ekvivalentlik → ijtimoiy-informativ qiymat → izosign munosabati yagona model doirasida talqin etildi. Amaliy jihatdan mazkur yondashuv o‘zbek va bolgar tillarining qiyosiy pragmatikasi, madaniyatlararo kommunikasiya, tarjima, nutq etiketi, diskurs tahlili va pragmatik korpuslar yaratishda qo‘llanishi mumkin.

Shunday qilib, izosign – turli tillarda turlicha verbal va neverbal vositalar orqali ifodalangan, ammo umumiy kommunikativ maqsad va ijtimoiy-informativ qiymat bilan birlashgan funksional-pragmatik ekvivalentlikning nazariy ifodasi sifatida qaralishi mumkin. Ushbu kategoriya o‘zbek va bolgar tillari materiallari asosida pragmatik sistemalarni qiyosiy modellashtirishning yangi imkoniyatlarini ochadi hamda kelgusida turli kommunikativ aktlar va kengroq madaniyatlararo materiallar asosida empirik jihatdan yanada sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Blum-Kulka S., House J., Kasper G. (Eds.). (1989). Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation. 300 p.

2. Brown P., Levinson S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press. 358 p. (Studies in Interactional Sociolinguistics, 4). DOI: 10.1017/CBO9780511813085.

3. Грисе Х. П. (1985). Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс. – С. 217–237.

4. Oybek. (1985). Navoiy. – T.: O‘qituvchi.

5. Peneva D. (2017). The use of commissive speech acts in English and Bulgarian and their politeness implication // Studies in Linguistics, Culture and FLT. Vol. 2. Sofia: Asenevtsi Publishing. – pp. 227–239. DOI: 10.46687/SILC.2017.v02.019.

6. Petkova S. (2025). Pragmatic aspects of the translation of Russian discourse formulas of objection into Bulgarian // Cuadernos de Rusística Española. No. 21. Granada: Universidad de Granada. – pp. 327–343. DOI: 10.30827/cre.v21.33630.

7. Sabirova S. M. (2026). Pragmatic orientation of emotional units in English and Uzbek: An analysis of speech acts and communicative strategies // Oriental Journal of Philology. Vol. 6, No. 2. – pp. 148–157. DOI: 10.37547/supsci-ojp-06-02-21.

8. Солнцев В. М. (1971). Язык как системно-структурное образование. – М. – С. 95.

9. Tchizmarova I. K. (2005). Hedging functions of the Bulgarian discourse marker xajde // Journal of Pragmatics. Vol. 37, Issue 8. – pp. 1143–1163. DOI: 10.1016/j.pragma.2005.01.003.

10. Таирова Г. (2011). Дискурсная система и её графическое выражение // Filologiya meseleleri. – Baku: “Elm və təhsil”. – № 10. – S. 351–357.

11. Toirova G. (2009). Nutqiy muloqotning pragmatik tahlilida sistema tushunchasi // Filologiya masalalari. – Toshkent: O‘zDJTI. – № 1. – B. 26–31.

12. Toirova G. (2010). Nutqiy muloqotni grafik jihatdan aks ettiruvchi chiziq // BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro. – № 1. – B. 58–63.

13. Toirova G. (2011). Situativ-pragmatik sistemada izosayn tushunchasi // BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro. – № 4. – B. 62–66.

14. Toirova G. I., Astanova, G. A., Rakhimova, N. K., & Khojieva, M. Y. (2019). Artistic expressions of a situational pragmatic system // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue 3. – pp. 4591–4593. DOI: 10.35940/ijrte.C6830.098319.

15. Toirova G. (2018). Nutqiy muloqotning lisoniy verbal va lisoniy noverbal vositalari xususida (salomlashish misolida) // BuxDU ilmiy axboroti. – Buxoro. – № 1. – B. 67–74.

16. Toirova G. I., & Oripova, P. (2024). Gratitude expresses pragmatic meanings // Inlibrary. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.archive.29972.

17. Turgunova Sh. A. (2025). Cross-cultural pragmatics in English and Uzbek: Speech acts and politeness strategies // Current Approaches and New Research in Modern Sciences. Vol. 4, No. 13. – pp. 95–97. DOI: 10.5281/zenodo.16832557.

UO‘K 81’42:81’25

INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA URUSH VA KURASH METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI

Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)
mtojiboyeva95@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida urush va kurash metaforalarining kognitiv, lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy va ijtimoiy muammolarning qarama-qarshilik, kurash, himoya va g‘alaba kabi konseptlar orqali ifodalanishi o‘rganiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik birliklarning umumiy hamda farqli jihatlari, shuningdek, ularning baholash, ishontirish, legitimlashtirish va auditoriyani safarbar etishdagi vazifalari aniqlanadi. Tahlil natijalari urush va kurash metaforalari siyosiy voqelikni konseptuallashtirish bilan birga, siyosiy pozitsiyani asoslash va auditoriyaning munosabatini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, metafora, urush metaforasi, kurash metaforasi, konseptual metafora, kognitiv model, pragmatik funksiya, siyosiy kommunikatsiya.*

A COMPARATIVE ANALYSIS OF WAR AND STRUGGLE METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE

Abstract. *This article provides a comparative analysis of war and struggle metaphors in English and Uzbek political discourse. It examines how political and social problems are conceptualized through the notions of confrontation, struggle, defence, and victory. The study identifies the common and distinctive features of metaphorical expressions in English and Uzbek and analyzes their functions in evaluation, persuasion, legitimization, and audience mobilization. The findings demonstrate that war and struggle metaphors not only conceptualize political reality but also contribute to legitimizing political positions and shaping audience attitudes.*

Keywords: *political discourse, metaphor, war metaphor, struggle metaphor, conceptual metaphor, cognitive model, pragmatic function, political communication.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕТАФОР ВОЙНЫ И БОРЬБЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ когнитивных, языковых и прагматических особенностей метафор войны и борьбы в английском и узбекском политическом дискурсе. Исследуется концептуализация политических и социальных проблем посредством понятий противостояния, борьбы, защиты и победы. Выявляются общие и отличительные особенности метафорических единиц в английском и узбекском языках, а также анализируются их функции в оценке, убеждении, легитимации и мобилизации аудитории. Результаты исследования показывают, что метафоры войны и борьбы не только концептуализируют политическую действительность, но и способствуют обоснованию политической позиции и формированию отношения аудитории.*

Ключевые слова: *политический дискурс, метафора, метафора войны, метафора борьбы, концептуальная метафора, когнитивная модель, прагматическая функция, политическая коммуникация.*

Kirish. Metafora inson tafakkurining mavhum hodisalarni konkret tajriba asosida anglash va ifodalash imkonini beruvchi muhim kognitiv mexanizmlaridan biridir. Ayniqsa, siyosiy diskursda metafora murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni auditoriya uchun tushunarli, ta’sirchan va baholovchi shaklda taqdim etishga xizmat qiladi. Siyosiy hokimiyat, raqobat, ijtimoiy muammolar, xavfsizlik va qarama-qarshilik kabi mavhum tushunchalarning urush va kurash tajribasi asosida ifodalanishi siyosiy kommunikatsiyada keng tarqalgan hodisalardan biridir.

Siyosatni urush yoki kurash sifatida konseptuallashtirishda siyosiy subyektlar raqib, siyosiy muammolar esa qarshi turilishi lozim bo‘lgan kuch sifatida tasavvur qilinadi. Bunday metaforik model siyosiy hodisaga muayyan baho berish, qarama-qarshi tomonlarni ajratish va auditoriyani faol pozitsiyani egallashga undash imkonini beradi. Shu sababli urush va kurash metaforalari siyosiy nutqning faqat obrazlilik darajasini oshiruvchi vosita emas, balki siyosiy ma’noning shakllanishida ishtirok etuvchi kognitiv va pragmatik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Konseptual metafora nazariyasining asosiy tamoyillari G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar metaforani bir konseptual sohani boshqa tajriba sohasi vositasida anglash imkonini beruvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar. Mazkur yondashuvga ko‘ra, metafora faqat tilning obrazli vositasi emas, balki inson tafakkurini tashkil etuvchi konseptual tizimning bir qismidir. Siyosatni urush yoki kurash sifatida anglash ham konkret jismoniy va ijtimoiy tajribaning mavhum siyosiy sohaga ko‘chirilishiga asoslanadi [4,78].

Z. Kövecses konseptual metaforalarning shakllanishida universal insoniy tajriba bilan bir qatorda madaniy omillarning ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayrim metaforik modellar turli xalqlarda umumiy bo‘lishi mumkin, biroq ularning tanlanishi, qo‘llanish darajasi va mazmuniy yuklamasi madaniy muhitga ko‘ra farqlanadi [3, 123]. Shu nuqtayi nazardan urush va kurash metaforalarini ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida qiyosiy o‘rganish umumiy kognitiv asoslar bilan milliy-madaniy xususiyatlarning o‘zaro munosabatini aniqlashga imkon beradi.

J. Charteris-Black siyosiy metaforaning persuaziv kuchiga alohida e’tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida metafora siyosiy g‘oyalarni auditoriyaga ta’sirchan yetkazish, siyosiy voqelikni muayyan nuqtayi nazardan talqin qilish va siyosiy pozitsiyani mustahkamlash vositasi sifatida izohlanadi [1, 234]. Urush va kurash metaforalari ushbu jihatdan ayniqsa muhimdir, chunki ular siyosiy masalani “qarshilik” va “g‘alaba” kabi aniq konseptlar orqali ifodalab, auditoriyada faol munosabat shakllantirishi mumkin.

A. Musolff siyosiy metaforalarni alohida so‘z yoki birikma darajasidagina emas, balki muayyan diskursiv ssenariylar tarkibida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [5, 59]. Urush metaforasi doirasida raqib, himoya, hujum, qarshilik, strategiya va g‘alaba kabi o‘zaro bog‘langan konseptlar shakllanadi. Bunday ssenariy siyosiy hodisaning qanday baholanishi va unga qanday munosabat bildirilishi kerakligini ham belgilashi mumkin.

E. Semino metaforaning diskursdagi ma’nosi kontekst bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi [6, 203]. Bir xil urush yoki kurash leksikasi turli siyosiy vaziyatlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Shu bois metaforik birliklarni faqat lug‘aviy ma’nosi asosida emas, balki ularning kontekstdagi funksiyasi, baholovchi xususiyati va kommunikativ maqsadi asosida tahlil qilish muhimdir.

P. Chilton siyosiy diskursda qarama-qarshilik, hokimiyat, nazorat va siyosiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning til orqali shakllanishiga e’tibor qaratadi. Uning yondashuvi urush metaforalarida “biz” va “ular” oppozitsiyasining yuzaga kelishi, siyosiy raqibning muayyan obrazda tasvirlanishi va siyosiy harakatning zarurligi qanday asoslanishini o‘rganish uchun nazariy imkoniyat yaratadi [2, 96].

Siyosiy metafora tadqiqotlarida framing konsepsiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Metafora orqali siyosiy hodisaning ayrim jihatlari oldinga chiqariladi, boshqalari esa ikkilamchi planga o‘tadi. Masalan, siyosiy muammoni urush sifatida tasvirlashda qarama-qarshilik, xavf, raqib va g‘alaba komponentlari faollashadi. Natijada auditoriya siyosiy vaziyatni oddiy boshqaruv muammosi sifatida emas, balki faol qarshilikni talab qiluvchi holat sifatida qabul qilishi mumkin. O‘zbek siyosiy diskursini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham urush va kurashga oid metaforalar siyosiy hamda ijtimoiy muammolarni konseptuallashtirishda faol vosita sifatida qayd etiladi. Xususan, kurash metaforasi ijtimoiy muammolarga qarshi faol harakat, muayyan maqsad sari intilish va mavjud to‘siqlarni bartaraf etish mazmunlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu holat o‘zbek siyosiy kommunikatsiyasida kurash konseptining nafaqat konflikt, balki faol ijtimoiy mas’uliyat va umumiy maqsad bilan ham bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida qo‘llangan urush va kurash mazmunidagi metaforik birliklar tanlab olindi. O‘zbek tilidagi materiallar siyosiy nutq va rasmiy chiqishlardan, ingliz tilidagi materiallar esa siyosiy nutqlardan olindi. Tahlilda siyosiy mazmunning urush, kurash, qarshilik, himoya va g‘alaba kabi tajriba sohalari orqali ifodalanishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tadqiqotda konseptual metaforik tahlil, qiyosiy tahlil va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlab metaforik birliklar aniqlanib, ularning manba va maqsad sohalari belgilandi. Keyingi bosqichda metaforalarning siyosiy kontekstdagi funksiyasi, baholovchi xususiyati va auditoriyaga ta’sir mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida urush va kurash metaforalari siyosiy hamda ijtimoiy muammolarni konkret konflikt tajribasi asosida konseptuallashtirishga xizmat

qilishini ko‘rsatdi. Mazkur metaforik modelda siyosiy muammo qarshi kuch, siyosiy subyekt faol kurashuvchi, maqsad esa g‘alaba yoki muammoni bartaraf etish sifatida tasavvur qilinadi.

O‘zbek siyosiy diskursida kurash *metaforasi, avvalo, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish jarayonida faol qo‘llanadi. “Kambag‘allikka qarshi kurash”, “korrupsiyaga qarshi kurash”, “jinoyatchilikka qarshi kurash”, “odam savdosiga* **qarshi kurash”** kabi birikmalarda mavhum ijtimoiy hodisa inson faoliyatiga qarshi turuvchi kuch sifatida modellashtiriladi. Bu holatda manba sohasi **KURASH**, maqsad sohasi esa **IJTIMOIY MUAMMO** hisoblanadi. Metaforik ko‘chish natijasida muammoni hal qilish passiv boshqaruv jarayoni emas, balki faol qarshilik talab qiladigan harakat sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek siyosiy diskursida *“jaholatga qarshi kurash”, “giyohvandlikka qarshi kurash”, “ekstremizmga qarshi kurash”* kabi birikmalar ham shu modelga mansub. Bunday birliklarda salbiy hodisalar go‘yoki mustaqil kuchga ega raqib sifatida tasavvur qilinadi. Shu orqali muammoning xavflilik darajasi oshirib ko‘rsatiladi va unga qarshi faol choralar ko‘rish zarurligi ta’kidlanadi.

Kurash metaforasi o‘zbek siyosiy nutqida ijobiy qadriyatlar bilan ham bog‘lanadi. *“Adolat uchun kurash”, “haqiqat uchun kurash”, “xalq manfaatlari uchun kurash”* kabi ifodalarda kurash salbiy hodisaga qarshi emas, balki ijobiy maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda siyosiy subyekt ijtimoiy manfaatlarni himoya qiluvchi va ma’lum qadriyatlarni qaror toptirishga intiluvchi faol kuch sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, o‘zbek siyosiy diskursida *“tahdidlarga qarshi turish”, “xavf-xatarlarga qarshi birgalikda harakat qilish”, “muammolarni yengib o‘tish”* kabi ifodalar ham kurash semantik maydoniga yaqin turadi. Ular orqali siyosiy vaziyatning murakkabligi va unga nisbatan faol munosabat zarurligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, “birgalikda” komponenti kurashni individual emas, balki jamoaviy faoliyat sifatida ko‘rsatib, auditoriyani umumiy maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

Ingliz siyosiy diskursida ham *fight poverty, combat crime, tackle inequality, fight for justice, confront threats* kabi birliklar keng uchraydi. *Fight poverty* va *combat crime* kabi konstruksiyalarda ijtimoiy muammo kurashilishi kerak bo‘lgan raqib sifatida tasavvur qilinadi. *Fight for justice* esa ijobiy qadriyatga erishish jarayonini kurash sifatida modellashtiradi.

Ingliz va o‘zbek materiallarining qiyosiy tahlili **MUAMMO – RAQIB** modelining ikki diskurs uchun umumiy ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida kambag‘allik, korrupsiya, jinoyatchilik, jaholat kabi tushunchalar “qarshi kurashiladigan” hodisa sifatida tasvirlansa, ingliz tilida *poverty, crime, inequality, injustice* kabi tushunchalar *fight, combat, tackle* fe’llari bilan bog‘lanadi. Demak, har ikki tilda mavhum muammo konkret qarama-qarshilik obyekti sifatida konseptuallashtiriladi.

Urush metaforasining yana bir muhim modeli **SIYOSIY FAOLIYAT – HIMOYA** tarzida namoyon bo‘ladi. O‘zbek siyosiy diskursida *“milliy manfaatlarni himoya qilish”, “tinchlikni asrash”, “xalq xavfsizligini himoya qilish”, “davlat manfaatlarini himoya qilish”* kabi ifodalar siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarni tashqi yoki ichki tahdidlardan himoya qilinishi lozim bo‘lgan obyekt sifatida ko‘rsatadi. Bu modelda siyosiy subyekt “himoyachi”, tahdid esa qarshi kuch sifatida konseptuallashtiriladi. Masalan, *“milliy manfaatlarni himoya qilish”* birikmasida milliy manfaatlar muayyan tashqi ta’sirdan himoyalanishi lozim bo‘lgan qadriyat sifatida tasavvur qilinadi. Natijada siyosiy subyektning faol pozitsiyasi legitimlashtiriladi.

Ingliz siyosiy diskursida *defend democracy, protect national interests, defend freedom, protect our communities* kabi birliklar shu konseptual modelni namoyon etadi. *Defend democracy* konstruksiyasida demokratiya himoya qilinishi lozim bo‘lgan qadriyat sifatida, siyosiy subyekt esa uning himoyachisi sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa siyosiy qarorning zarurligini auditoriyaga tabiiy va asosli ko‘rsatishga yordam beradi.

Urush metaforalarida **RAQIB – DUSHMAN** modeli ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek siyosiy diskursida *“dushman g‘oyalar”, “yovuz kuchlar”, “tahdid soluvchi kuchlar”, “qarshi kuchlar”* kabi ifodalar siyosiy yoki ijtimoiy xavfni shaxslashtirishga xizmat qiladi. Mavhum hodisaning “kuch” yoki “dushman” sifatida tasvirlanishi uning xavflilik darajasini oshirib ko‘rsatadi.

Ingliz siyosiy diskursida *enemy, hostile forces, adversaries, threats* kabi birliklar siyosiy raqib yoki xavfni qarama-qarshi kuch sifatida ifodalashga yordam beradi. Bunday birliklar ayniqsa xavfsizlik, xalqaro munosabatlar va siyosiy raqobat kontekstida faol ishlatiladi. “Biz” va “ular” oppozitsiyasining yuzaga kelishi auditoriyada guruhiy identifikatsiyani kuchaytirishi mumkin.

Shu jihatdan o‘zbek va ingliz siyosiy diskurslarida **BIZ – ULAR** qarama-qarshiligi urush metaforasi orqali konseptual jihatdan kuchaytiriladi. Biroq uning ifodalanish darajasi va kommunikativ maqsadi siyosiy vaziyatga bog‘liq. O‘zbek siyosiy nutqida qarama-qarshilik ko‘pincha ijtimoiy xavf va salbiy hodisalarga qarshi umumiy harakat shaklida berilsa, ingliz siyosiy diskursida siyosiy raqobat va tashqi tahdidlarni belgilashda ham faol qo‘llanishi mumkin.

Urush va kurash metaforalarining muhim komponentlaridan biri **G‘ALABA – MUVAFFAQIYAT** modelidir. O‘zbek siyosiy diskursida *“sinovlarni yengib o‘tish”, “to‘siqlarni bartaraf etish”, “g‘alaba qozonish”, “muammolarni yengish”* kabi birliklar maqsadga erishishni qarshilik ustidan ustun kelish sifatida ifodalaydi. Bunda siyosiy natija oddiy muvaffaqiyat emas, balki muayyan qarshilikni yengish natijasi sifatida konseptuallashtiriladi.

Ingliz siyosiy diskursida *overcome challenges*, *win the fight*, *achieve victory*, *defeat a threat* kabi birliklar shunga yaqin konseptual asosga ega. Ular siyosiy subyektni qat’iyatli va faol kuch sifatida namoyon etib, siyosiy faoliyatning natijadorligini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilidagi kurash metaforalarining o‘ziga xos jihatlaridan biri ularning **jamoaviylik** mazmuni bilan bog‘lanishidir. **“***Birgalikda kurashish”, “hamjihatlikda harakat qilish”, “xalq bilan birga”, “umumiy sa’y-harakatlar”* kabi mazmunlar kurash jarayonini umumiy manfaat va jamoaviy mas’uliyat bilan bog‘laydi. Bu holatda siyosiy subyekt va auditoriya o‘rtasidagi masofa qisqaradi, chunki ular bir xil maqsad uchun harakat qilayotgan yagona guruh sifatida tasavvur qilinadi.

Ingliz siyosiy diskursida *we must fight*, *we stand together*, *we must confront the challenge* kabi birliklar ham kollektiv harakatni ifodalaydi. Biroq ularda siyosiy subyektning qat’iy pozitsiyasi va harakatga chaqiruv komponenti nisbatan kuchli namoyon bo‘lishi mumkin. Demak, har ikki tilda jamoaviylik mavjud bo‘lsa-da, uning pragmatik yo‘nalishi siyosiy kommunikativ vaziyatga qarab farqlanadi.

3. *Hirik E. Türkiye Türkçesi atasözlerinde akrabalık bildiren kelimeler ve duygo değerleri // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. – 2017. – C. 6. – № 3. – S. 1742–1764.*
4. *Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. I–II. – İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 1988.*
5. *Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Academia, 1997. – С. 267–279.*
6. *Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.*
7. *Fillmore C.J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. – P. 111–137.*

8. Minsky M. A framework for representing knowledge // The Psychology of Computer Vision / ed. P.H. Winston. – New York: McGraw-Hill, 1975. – P. 211–277.

9. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 304 p.

10. Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Berlin; New York: Mouton, 1985. – 216 p.

11. Honeck R.P. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1997. – 312 p.

12. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.

13. Çelik A. Türk atasözlerinde soy ve akrabalık // Nevşehir Hacı Bektaş Veli Üniversitesi SBE Dergisi. – 2021. – C. 11. – № 4. – S. 1630–1645.

14. Güngör Ergan N. Türk atasözleri ve deyimlerinde aile ve akrabalık anlayışı // Türkoloji Dergisi. – 2018. – № 2. – S. 45–58.

15. Belkhir S. (Ed.). Proverbs within Cognitive Linguistics: State of the Art. – Amsterdam: John Benjamins, 2024. – 280 p.

UO‘K 81'27:355:811.111/811.512.133

O‘ZBEK VA INGLIZ HARBIY DISKURSIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xasanova Shahlo Kamildjanovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti,
ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz harbiy diskursida qo‘llanadigan murojaat birliklarining lingvistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Harbiy diskurs institutsional muloqotning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida qat’iy iyerarxiya, xizmat intizomi, rasmiylik, bo‘ysunish va kommunikativ standartlashuv tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotda harbiy unvon, lavozim, familiya, Sir, Ma’am kabi birliklar hamda o‘zbek tilidagi unvon + familiya, unvon + ism va egalik qo‘shimchasi bilan shakllangan murojaat modellari lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Tahlil natijasida murojaat birliklari har ikki tilda adresatning ijtimoiy maqomi va xizmatdagi o‘rnini belgilash bilan birga, hurmat, masofa, birdamlik, bo‘ysunish va institutsional identifikatsiyani ifodalashi aniqlandi. Ingliz harbiy diskursida murojaat ko‘proq professional status va institutsional masofani kodlasa, o‘zbek harbiy diskursida ushbu funksiyalar bilan bir qatorda milliy nutq odobi, katta-kichiklik va hurmat kategoriyalari ham faol namoyon bo‘ladi. Maqolada murojaat birliklarining tarjimadagi pragmatik ekvivalentligi masalasi ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy diskurs, murojaat birliklari, lingvomadaniyat, harbiy unvon, nutq etiketi, pragmatika, iyerarxiya, hurmat, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕДИНИЦ ОБРАЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ВОЕННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный лингвокультурологический анализ единиц обращения в узбекском и английском военном дискурсе. Военный дискурс рассматривается как специфический тип институциональной коммуникации, основанный на строгой иерархии, служебной дисциплине, официальности, подчинении и стандартизации речевого поведения. Анализируются обращения, основанные на воинском звании, должности, фамилии, а также английские единицы Sir и Ma’am и различные модели обращений в узбекском языке. Установлено, что обращения в обоих языках выполняют не только идентифицирующую и коммуникативную функции, но и выражают уважение, социальную дистанцию, подчинение, профессиональную солидарность и институциональную идентичность. В английском военном дискурсе обращения преимущественно акцентируют профессиональный статус и институциональную дистанцию, тогда как в узбекском дискурсе эти функции взаимодействуют с национальными представлениями о почтении, старшинстве и социальных отношениях. Особое внимание уделяется проблеме прагматической эквивалентности военных обращений при переводе с английского языка на узбекский и наоборот.*

Ключевые слова: *военный дискурс, единицы обращения, лингвокультура, воинское звание, речевой этикет, прагматика, иерархия, уважение, английский язык, узбекский язык, межкультурная коммуникация.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ADDRESS UNITS IN UZBEK AND ENGLISH MILITARY DISCOURSE

Abstract. *This article provides a comparative linguocultural analysis of address terms used in Uzbek and English military discourse. Military discourse is viewed as a specific type of institutional communication characterized by strict hierarchy, service discipline, formality, subordination, and standardized communicative behavior. The study examines address forms based on military rank, position, surname, as well as such English forms as Sir and Ma’am and corresponding address patterns in Uzbek. The analysis demonstrates that address terms in both languages perform not only communicative and identifying functions but also encode respect, social distance, subordination, professional solidarity, and institutional identity. In English military discourse, address forms primarily emphasize professional status and institutional distance, whereas in Uzbek military discourse these functions interact with culturally specific*

concepts of respect, seniority, and social relations. Particular attention is paid to the problem of pragmatic equivalence in translating military address terms between English and Uzbek. The results demonstrate that effective intercultural military communication requires consideration of both linguistic form and the cultural-pragmatic meaning encoded in address terms.

Keywords: *military discourse, address terms, linguoculture, military rank, speech etiquette, pragmatics, hierarchy, respect, English, Uzbek, intercultural communication.*

Kirish. Til jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari va kommunikativ tajribasini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Insonlar o‘rtasidagi muloqotda qo‘llanadigan murojaat birliklari ushbu tizimning ayniqsa muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Murojaat shakli orqali so‘zlovchi nafaqat adresatni chaqiradi yoki uning e’tiborini tortadi, balki uning ijtimoiy maqomini tan oladi, unga nisbatan munosabatini bildiradi va kommunikativ vaziyatning rasmiylik darajasini belgilaydi. Shu sababli murojaat birliklari tilning grammatik va leksik imkoniyatlari bilan bir qatorda, xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini ham namoyon etadi.

Murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish ayniqsa institutsional diskurs doirasida muhimdir. Harbiy diskurs shunday institutsional kommunikatsiya turlaridan biri bo‘lib, unda kommunikantlarning ijtimoiy va xizmat maqomi oldindan belgilangan bo‘ladi. Harbiy xizmatda shaxslararo munosabatlar oddiy fuqarolik muloqotidagiga qaraganda ancha qat’iy tartibga solinadi. Harbiy unvon, lavozim, xizmat tajribasi va bo‘ysunish darajasi nutqiy xatti-harakatning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1, 59].

Harbiy diskursdagi murojaat birliklari shuning uchun oddiy murojaat vositasi emas. Ular hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlarini belgilash, xizmat iyerarxiyasini namoyish etish, harbiy intizomni mustahkamlash va institutsional identifikatsiyani yuzaga chiqarish vazifalarini bajaradi. Harbiy murojaat birliklari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ular rasmiylik, unvon, hokimiyat, iyerarxiya va protokolni ifodalovchi muhim vositalar sifatida tavsiflangan.

Mavzuning dolzarbligi ingliz va o‘zbek tillari harbiy diskursining xalqaro harbiy hamkorlik, harbiy tarjima va xorijiy tillarni maxsus maqsadlarda o‘qitish sharoitida tobora ko‘proq aloqaga kirishayotgani bilan ham belgilanadi. Harbiy kommunikatsiyada noto‘g‘ri murojaat shaklining tanlanishi nafaqat til xatosi, balki kommunikativ maqomning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz harbiy diskursida qo‘llanadigan murojaat birliklarini lingvomadaniy jihatdan qiyoslash, ularning strukturaviy shakllari, pragmatik vazifalari va madaniy-semantik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Murojaat birliklari masalasi pragmatika, sotsiolingvistika, nutq etiketi va lingvomadaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashadi. Murojaatning kommunikativ tabiatini tushuntirishda nutq aktlari nazariyasi muhim nazariy asoslardan biridir. J. L. Austin nutqning nafaqat axborot uzatish, balki muayyan harakatni amalga oshirish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, J. Searle nutq aktlarini tizimlashtirib, ularning kommunikativ maqsadlarini aniqlashtirdi [7, 153]. Murojaat birliklari ham muayyan kommunikativ harakatni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

P. Brown va S. Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi murojaat shakllarini ijtimoiy “yuz”ni saqlash, ijtimoiy masofani boshqarish va kommunikativ bosimni kamaytirish mexanizmlari bilan bog‘laydi. G. Leech esa xushmuomalalikni pragmatik tamoyillar asosida tahlil qilib, muloqotdagi hurmat va ijtimoiy muvozanatning til orqali ifodalanishiga e’tibor qaratadi.

R. Wardhaugh murojaat shakllarini tilning hokimiyat, birdamlik, rasmiylik va ijtimoiy masofani kodlovchi vositalaridan biri sifatida izohlaydi. Shu jihatdan harbiy diskurs murojaat birliklarining ijtimoiy indeksatsiya xususiyatlarini kuzatish uchun juda qulay material beradi [9, 57].

Ingliz va o‘zbek nutq etiketi bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlarda ushbu tillarda hurmat, murojaat va xushmuomalalikning turli lingvistik vositalar orqali ifodalanishi ko‘rsatilgan. Xususan, ingliz tilida *Sir, Madam, Mr, Mrs, Dr* kabi birliklar, o‘zbek tilida esa ism, qarindoshlik atamalari, hurmat bildiruvchi birliklar va turli affiksal vositalar ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qilishi qayd etiladi.

O‘zbek va rus tillaridagi murojaat hamda salomlashuv shakllarining lingvomadaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham murojaatning ijtimoiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Harbiy diskursga oid maxsus tadqiqotlarda esa murojaat birliklarining boshqa institutsional diskurs turlaridan farqli ravishda qat’iy protokol asosida qo‘llanishi ta’kidlanadi. D. Nasirdinovaning tadqiqotida harbiy xizmatchilar o‘rtasida murojaat birliklari intizom, hokimiyat, rasmiylik va ierarxik munosabatlarni aks

ettirishi qayd etilgan. Tadqiqotda G‘arb harbiy amaliyotida *rank + surname* hamda *Sir/Ma’am* modellarining, o‘zbek harbiy muhitida esa *rank + surname* modelining muhimligi ko‘rsatilgan.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek harbiy diskursining umumiy lingvistik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlarda aniqlik, standartlashuv, rasmiylik va institutsional xarakter har ikki tilda muhim umumiy belgilar sifatida ko‘rsatilgan.

Shunga qaramay, o‘zbek va ingliz harbiy murojaat birliklarining aynan **lingvomadaniy** xususiyatlarini, ya’ni ularning shakli ortida turgan milliy madaniy kodlar, hurmat konsepti va ijtimoiy qadriyatlarni kompleks ravishda qiyoslash masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan [10, 46].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat jihatidan qiyosiy-lingvomadaniy va lingvopragmatik yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek va ingliz harbiy diskursida qo‘llanadigan murojaat birliklari tanlandi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy metod – ingliz va o‘zbek tillaridagi murojaat birliklarining strukturaviy va funksional o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash uchun;

Lingvopragmatik tahlil – murojaat birliklarining kommunikativ vazifasi, adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat hamda ijtimoiy masofani belgilash xususiyatlarini aniqlash uchun;

Lingvomadaniy tahlil – murojaat shakllarida aks etuvchi milliy qadriyatlar, hurmat, katta-kichiklik, xizmatga sadoqat va ijtimoiy iyerarxiya kabi konseptlarni aniqlash uchun;

Diskursiv tahlil – murojaat birliklarini alohida so‘z sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyat va institutsional muhit tarkibida o‘rganish uchun;

Kontekstual tahlil – bir xil murojaat birligining turli vaziyatlarda qanday pragmatik ma’no kasb etishini aniqlash uchun foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek harbiy diskursiga oid ilmiy adabiyotlar, harbiy kommunikatsiya namunalari, murojaat shakllari va mavjud tadqiqotlarda keltirilgan misollar tahlil qilindi. Harbiy murojaatlarning lingvomadaniy mazmunini aniqlashda birlikning lug‘aviy shakli bilan bir qatorda uning kommunikativ vaziyati, adresant-adresat munosabati va institutsional maqomi hisobga olindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz harbiy diskursida murojaat birliklarining birinchi navbatda **ijtimoiy maqomni indeksatsiya qilish** vazifasini bajarishini ko‘rsatadi.

Ingliz harbiy diskursida eng xarakterli modellardan biri **harbiy unvon + familiya** shaklidir:

Captain Smith
Lieutenant Brown
Colonel Johnson
Sergeant Williams

Mazkur birliklarda familiya shaxsning individual identifikatorini, harbiy unvon esa uning institutsional maqomini belgilaydi. Demak, adresatning shaxsiy nomidan ko‘ra, uning xizmatdagi statusi kommunikativ vaziyat uchun muhimroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, ingliz harbiy muloqotida **Sir** va **Ma’am** shakllari alohida pragmatik yuklamaga ega. Masalan:

Yes, Sir.
No, Sir.
Understood, Sir.
Yes, Ma’am.

Bu shakllar nafaqat hurmatni, balki adresatning yuqori xizmat maqomini tan olishni ham bildiradi. *Sir* va *Ma’am* birliklarining harbiy diskursdagi vazifasi umumiy ingliz nutq etiketidan ko‘ra ancha institutsional xarakterga ega.

O‘zbek harbiy diskursida ham **unvon + familiya** modeli muhim hisoblanadi:

kapitan Karimov
mayor Aliyev
polkovnik Rahmonov

Mazkur model ingliz tilidagi *Captain Smith* yoki *Colonel Johnson* shakllari bilan funksional jihatdan yaqin. Har ikki holatda ham harbiy unvon shaxsning xizmat maqomini oldingi o‘ringa chiqaradi.

Biroq o‘zbek tilida murojaatning lingvomadaniy xususiyatlari yanada murakkab ko‘rinishga ega. Xususan, kapitanim, polkovnigim, serjantim kabi shakllar bunga misol bo‘la oladi. Bunday birliklarda *-im* affiksi grammatik jihatdan egalik ma’nosini ifodalasa-da, harbiy kommunikatsiya kontekstida u oddiy egalik ma’nosidan kengroq pragmatik vazifa bajarishi mumkin.

Masalan:

Xo‘p bo‘ladi, kapitanim.

Buyruq bajariladi, polkovnigim.

Ushbu shakllarda adresatning harbiy maqomi bilan birga unga nisbatan hurmat va xizmat munosabati ham ifodalanadi. Bu xususiyat o‘zbek tilining lingvomadaniy tizimida shaxslararo munosabatlarning grammatik vositalar orqali ham kodlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Harbiy murojaat birliklari bo‘yicha tadqiqotlarda aynan *polkovnigim, kapitanim, serjantim* kabi shakllar o‘zbek harbiy muloqotining o‘ziga xos vositalari sifatida qayd etilgan.

Bu jihatdan ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi muhim farqni ko‘rish mumkin. Ingliz tilida murojaatning ijtimoiy ma’nosi ko‘proq mustaqil leksik birliklar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida esa leksik vositalar bilan bir qatorda morfologik vositalar ham murojaatning pragmatik va lingvomadaniy mazmunini shakllantiradi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, harbiy murojaatlarda hurmat va iyerarxiya tushunchalari bir-biridan ajralmas holda namoyon bo‘ladi. Oddiy kundalik muloqotda hurmat shaxsning yoshi, qarindoshligi yoki ijtimoiy mavqei bilan belgilanadigan bo‘lsa, harbiy muhitda unga harbiy unvon va lavozim ham qo‘shiladi.

Masalan, o‘zbek madaniyatida katta yoshli kishiga *aka* yoki *opa* kabi qarindoshlik atamalari orqali murojaat qilish mumkin. Biroq rasmiy harbiy vaziyatda bunday birliklar o‘rnini protokolga mos harbiy unvon egallaydi. Bu holat harbiy diskursda milliy nutq odobi umumiy qoidalari institutsional me’yorlar bilan qayta tashkil etilishini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida esa kundalik muloqotdagi norasmiy murojaatlar harbiy muhitda *rank + surname*, *Sir* yoki *Ma’am* kabi institutsional birliklar bilan almashtirilishi mumkin. Demak, har ikki tilda harbiy diskurs umumiy milliy nutq madaniyatiga nisbatan o‘ziga xos “maxsus kommunikativ kod”ni shakllantiradi.

Murojaat birliklarining yana bir muhim xususiyati — institutsional identifikatsiya. Harbiy xizmatchi adresatga uning ismi bilan emas, unvoni bilan murojaat qilganida, aslida uning individual shaxsidan ko‘ra harbiy institutdagi rolini kommunikativ jihatdan faollashtiradi. Shu sababli *Captain* yoki *kapitan* murojaati nafaqat shaxsni chaqirish, balki uning vakolatini tan olish vositasi hisoblanadi.

Shuningdek, murojaat birliklari buyruqning pragmatik kuchini ham belgilaydi. Masalan:

Captain, report to the command post.

Kapitan, qo‘mondonlik punktiga boring.

Bu yerda murojaat birliklari buyruqning o‘zidan oldin kelib, adresatning identifikatsiyasini amalga oshiradi. Harbiy diskursda buyruqning samarali bajarilishi ko‘p jihatdan kommunikativ rollarning aniq belgilanishiga bog‘liq.

1-jadval.

Murojaat birliklarining lingvomadaniy mazmuni asosiy kategoriyalari

Lingvomadaniy kategoriya	Ingliz harbiy diskursi	O‘zbek harbiy diskursi
Iyerarxiya	Rank, Sir/Ma’am	Unvon, unvon + familiya
Hurmat	Sir, Ma’am, rank	Unvon, -im shakllari
Rasmiylik	Rank + surname	Unvon + familiya
Institutsional maqom	Rank/position	Harbiy unvon/lavozim
Ijtimoiy masofa	Sir/Ma’am	Unvon asosidagi murojaat
Birdamlik	Professional identity	Xizmat va jamoaviylik
Milliy-madaniy komponent	Individual status va professional role	Katta-kichiklik, hurmat, xizmatga sadoqat

Ushbu taqqoslash ingliz va o‘zbek harbiy murojaat birliklarining umumiy funksional asosga ega ekanligini, biroq ularning lingvomadaniy mazmuni turli vositalar orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

Muhokama. Harbiy murojaat birliklarini faqat grammatik yoki leksik birlik sifatida o‘rganish ularning haqiqiy kommunikativ imkoniyatlarini to‘liq ochib bermaydi. Chunki murojaatning ma’nosi uning shaklidan tashqari, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy munosabatlarga ham bog‘liq.

Masalan, ingliz tilidagi *Sir* birligi umumiy fuqarolik muloqotida ham hurmat ifodasi bo‘lishi mumkin. Harbiy diskursda esa uning mazmuni yanada institutsionallashadi: u xizmat iyerarxiyasini va buyruq beruvchi shaxsning maqomini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi *kapitanim* shakli ham harbiy

kontekstdan tashqarida boshqa mazmun kasb etishi mumkin, harbiy diskursda esa uning pragmatik yuklamasi ancha aniq bo‘ladi.

Bu holat murojaat birliklarining kontekstual polisemiya xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bir xil shakl turli diskurslarda turlicha ijtimoiy ma’no kasb etadi.

Ikkinchi muhim masala – lingvomadaniy ekvivalentlik. Ingliz tilidagi *Sir* birlikni o‘zbek tiliga har doim bitta so‘z bilan tarjima qilish mumkin emas. Chunki tarjima jarayonida so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, uning institutsional va pragmatik funksiyasi ham qayta yaratilishi kerak. Kontekstga qarab *janob, kapitanim, janob kapitan, xo‘p bo‘ladi, kapitanim* kabi variantlar yuzaga kelishi mumkin.

Xuddi shu muammo o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada ham mavjud. Masalan, *polkovnigim* shaklini oddiy *Colonel* deb tarjima qilish grammatik jihatdan mumkin bo‘lsa-da, o‘zbekcha shakldagi qo‘shimcha hurmat va xizmatga oid yaqinlik komponenti qisman yo‘qolishi mumkin. *My Colonel* shakli esa ingliz harbiy nutqining tabiiy protokoliga to‘liq mos kelmasligi mumkin.

Demak, harbiy tarjimada formal ekvivalentlikdan ko‘ra funksional-pragmatik ekvivalentlik muhimroq. Tarjimon adresatning maqomi, kommunikativ vaziyat, xizmat iyerarxiyasi va milliy nutq odobini hisobga olishi zarur.

Yana bir muhim jihat – globallashuv jarayonida harbiy kommunikatsiya tillarining o‘zaro ta’siridir. Ingliz tili xalqaro harbiy hamkorlikda muhim kommunikativ vosita sifatida qo‘llanayotganligi sababli, uning murojaat modellari boshqa tillardagi harbiy kommunikatsiyaga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq bunday ta’sir milliy harbiy nutq etiketi va lingvomadaniy an’analarni to‘liq siqib chiqarmaydi. Aksincha, xalqaro harbiy kommunikatsiyada universal protokol birliklari bilan milliy nutq madaniyati o‘rtasida muayyan muvozanat yuzaga keladi.

Shu sababli harbiy ingliz tilini o‘qitishda faqat *Captain, Lieutenant, Sir, Ma’am* kabi birliklarning lug‘aviy ma’nolarini o‘rgatish yetarli emas. O‘rganuvchi ushbu birliklarning qachon, kimga, qanday vaziyatda va qanday intonatsiya bilan ishlatilishini ham bilishi lozim.

Bu masala o‘zbek harbiy xizmatchilarining ingliz tilidagi professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham muhim. Til o‘rganuvchi ingliz tilidagi harbiy murojaatni o‘zbek tilidagi shakl bilan avtomatik ravishda tenglashtirmasligi kerak. Chunki tillar o‘rtasidagi formal moslik pragmatik moslikni doimo ta’minlamaydi.

Shunday qilib, harbiy murojaat birliklari til va madaniyat o‘rtasidagi aloqaning yaqqol ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali jamiyatning hokimiyat, hurmat, tartib, katta-kichiklik va institutsional munosabatlarga bo‘lgan qarashlari tilga ko‘chadi.

Xulosa. O‘zbek va ingliz harbiy diskursidagi murojaat birliklarini qiyosiy lingvomadaniy tahlil qilish natijasida ularning bir vaqtning o‘zida bir necha kommunikativ va ijtimoiy vazifalarni bajarishi aniqlandi. Birinchi navbatda, ular adresatning harbiy maqomini belgilaydi va xizmat iyerarxiyasini kommunikativ jihatdan mustahkamlaydi. Ikkinchidan, murojaat shakllari hurmat, rasmiylik, ijtimoiy masofa va bo‘ysunish munosabatlarini ifodalaydi. Uchinchidan, ular harbiy institutga mansublik va professional identifikatsiyani namoyon etadi.

Ingliz harbiy diskursida *rank + surname*, *rank*, *Sir* va *Ma’am* kabi birliklar asosiy murojaat modellarini tashkil qiladi. Ularning lingvomadaniy mazmunida professional maqom, institutsional masofa va rasmiy hurmat ustuvorlik qiladi. O‘zbek harbiy diskursida esa *unvon + familiya* modeli bilan bir qatorda *kapitanim, polkovnigim, serjantim* kabi shakllar ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu birliklarda harbiy maqom bilan birga hurmat, xizmatga sadoqat va milliy nutq odobiga xos munosabat komponentlari ham namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek harbiy murojaat tizimlari funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy asoslari bir xil emas. Ingliz tilida professional va institutsional statusni bevosita nomlash ustun bo‘lsa, o‘zbek tilida bu status milliy hurmat, katta-kichiklik va ijtimoiy munosabatlarning boshqa ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘lanadi.

Shu bois harbiy tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiyada murojaat birliklarini so‘zma-so‘z tarjima qilish emas, balki ularning lingvomadaniy va pragmatik funksiyasini qayta yaratish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi *Sir/Ma’am* hamda o‘zbek tilidagi *-im* affiksli murojaat shakllari funksional-pragmatik ekvivalentlik nuqtayi nazaridan alohida tadqiqotni talab qiladi.

Umuman olganda, harbiy murojaat birliklari tilning milliy-madaniy xususiyatlarini institutsional kommunikatsiya bilan bog‘lovchi muhim lingvistik vositadir. Ularni chuqur o‘rganish harbiy diskurs nazariyasini rivojlantirish, professional tarjima sifatini oshirish, harbiy xizmatchilarning xorijiy tillardagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda xalqaro harbiy-madaniy muloqot samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.

2. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

3. Blum-Kulka, S., House, J., Kasper, G. (eds.). Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Norwood, NJ: Ablex, 1989.

4. Crystal, D. English as a Global Language. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

5. Holmes, J. An Introduction to Sociolinguistics. 4th ed. London: Routledge, 2013.

6. Leech, G. The Pragmatics of Politeness. Oxford: Oxford University Press, 2014.

7. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

8. Scollon, R., Scollon, S. W. Intercultural Communication: A Discourse Approach. 2nd ed. Oxford: Blackwell, 2001.

9. Wardhaugh, R. An Introduction to Sociolinguistics. 6th ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.

10.Safarov, Sh. Pragmatika. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2013.

11.Jo‘rayeva, G. A comparative rhetorical study of speech etiquette formulas in English and Uzbek. The Lingua Spectrum, Vol. 4, 2024.

УДК 811.111

ИНТЕРАКТИВНЫЕ СРЕДСТВА ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЯХ

Бушуй Татьяна Анатольевна,
профессор Самаркандского государственного института иностранных языков, доктор филологических наук
tanya.bushuy@mail.ru, info@samdchti.uz

Аннотация. *В статье исследуются интерактивные средства представления лексикографической информации в современных электронных словарях. Рассматриваются поисково-навигационные, гипертекстовые, аудиовизуальные, корпусно-контекстуальные, семантико-визуализационные и персонализирующие механизмы. Определяются их структурные и функциональные особенности, раскрывается роль интерактивности в трансформации традиционной словарной статьи. Установлено, что интерактивные технологии обеспечивают нелинейность, многоуровневость и адаптивность представления языковых данных, способствуя формированию пользовательски ориентированной модели электронной лексикографии и расширению функционального потенциала цифровых словарных ресурсов.*

Ключевые слова: *электронная лексикография, электронный словарь, интерактивность, лексикографическая информация, гипертекст, мультимодальность, персонализация.*

ELEKTRON LUG‘ATLARDA LEKSIKOGRAFIK AXBOROTNI TAQDIM ETISHNING INTERAKTIV VOSITALARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy elektron lug‘atlarda leksikografik ma’lumotlarni taqdim etishning interaktiv vositalari tadqiq qilinadi. Unda qidiruv-navigatsiya, gipermatn, audiovizual, korpus-kontekst, semantik-vizualizatsiya va personallashtirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Ularning tuzilmaviy va funksional xususiyatlari aniqlanadi, an’anaviy lug‘at maqolasining o‘zgarishida interaktivlikning o‘rni ochib beriladi. Interaktiv texnologiyalar til ma’lumotlarini taqdim etishda chiziqli bo‘lmaganlik, ko‘p bosqichlilik va moslashuvchanlikni ta’minlashi, elektron leksikografiyaning foydalanuvchiga yo‘naltirilgan modelini shakllantirishga hamda raqamli lug‘at resurslarining funksional salohiyatini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *elektron leksikografiya, elektron lug‘at, interaktivlik, leksikografik ma’lumot, gipermatn, multimodallik, personallashtirish.*

INTERACTIVE TOOLS FOR PRESENTING LEXICOGRAPHIC INFORMATION IN ELECTRONIC DICTIONARIES

Abstract. *The article examines interactive tools for presenting lexicographic information in modern electronic dictionaries. Search and navigation, hypertext, audiovisual, corpus-contextual, semantic visualization, and personalization mechanisms are considered. Their structural and functional characteristics are identified, and the role of interactivity in transforming the traditional dictionary entry is revealed. It is established that interactive technologies ensure non-linearity, multi-level organization, and adaptability in the presentation of linguistic data, contributing to the development of a user-oriented model of electronic lexicography and expanding the functional potential of digital dictionary resources.*

Keywords: *electronic lexicography, electronic dictionary, interactivity, lexicographic information, hypertext, multimodality, personalization.*

Введение. Современная лексикография развивается в условиях интенсивной цифровизации языковых ресурсов, обусловившей существенное изменение принципов организации, представления и использования словарной информации. Электронный словарь перестаёт функционировать исключительно как цифровой аналог печатного издания и приобретает свойства динамической информационной системы, обеспечивающей активное взаимодействие пользователя с лексикографическими данными. Особую значимость в данном процессе получают интерактивные средства, включающие гипертекстовую навигацию, поисковые механизмы, аудиовизуальные

компоненты, корпусные ссылки, семантические сети, пользовательские настройки и адаптивные инструменты [16, 202-206]. Их применение изменяет традиционную структуру словарной статьи и способствует многоуровневому представлению значения, формы и функционирования языковой единицы [12, 21-25]. Актуальность исследования определяется необходимостью систематизации интерактивных механизмов электронной лексикографии и установления их функциональной роли в организации словарного знания. Цель статьи состоит в выявлении основных типов интерактивных средств и определении их значения для совершенствования способов репрезентации лексикографической информации в современной цифровой среде.

Обзор литературных источников. Исследования современной электронной лексикографии характеризуются переходом от анализа технических преимуществ цифрового формата к изучению пользовательски ориентированной организации словарного содержания [13, 16-18; 14, 99-104]. В работах, посвящённых мультимодальной и учебной лексикографии 3, 37-78; 4, 11-13; 9, 19–28; 10, 23–26], интерактивность рассматривается во взаимосвязи с гипертекстуальностью, мультимедийностью, корпусными технологиями и персонализацией доступа к языковым данным [5, 10-11; 20, 89; 17, 29]. Особое внимание уделяется электронным ресурсам, объединяющим дефиниции, аудиопроизношение, примеры, визуальные материалы, коллокационные модели и перекрёстные ссылки [15, 59-67, 11, 22]. Исследователи подчёркивают, что цифровая среда трансформирует словарную статью из линейно организованного текста в многоуровневую информационную структуру [6, 99-101]. Вместе с тем интерактивные средства нередко описываются преимущественно как технические дополнения [7, 15-18]. Это обусловливает необходимость их системного лексикографического анализа с точки зрения функций, способов представления значения и характера пользовательского взаимодействия.

Методология исследования. Методология исследования основывается на комплексном функционально-лексикографическом подходе к изучению электронных словарей. В качестве основных применяются описательный, классификационный, структурно-функциональный и сопоставительный методы. Описательный метод используется для характеристики интерактивных компонентов цифровой словарной статьи; классификационный – для систематизации средств взаимодействия пользователя с лексикографическими данными; структурно-функциональный анализ позволяет установить связь между формой представления информации и выполняемой ею функцией. Сопоставительный метод применяется при выявлении различий между линейной организацией печатного словаря и многоуровневой архитектурой электронного ресурса. Дополнительно используется пользовательски ориентированный анализ, учитывающий поисковые сценарии, навигацию, персонализацию и вариативность доступа к данным. Такой методологический комплекс позволяет рассматривать интерактивность одновременно как технологическое свойство цифровой среды и как самостоятельный принцип современной лексикографической репрезентации.

Анализ полученных результатов. Проведённый анализ позволяет определить интерактивность как один из системообразующих признаков современного электронного словаря. Если в традиционном печатном издании пользователь взаимодействует преимущественно с заранее установленной последовательностью текстовых компонентов, то цифровая среда предоставляет возможность самостоятельно определять траекторию обращения к информации. В результате словарная статья приобретает нелинейную структуру: отдельные её компоненты могут раскрываться, дополняться, фильтроваться, сопоставляться и связываться с внешними или внутренними информационными модулями. Следовательно, интерактивность затрагивает не только интерфейс словаря, но и принципы структурирования лексикографического знания.

В рамках исследования целесообразно разграничивать несколько взаимосвязанных типов интерактивных средств: поисково-навигационные, гипертекстовые, аудиальные и аудиовизуальные, корпусно-контекстуальные, семантико-визуализационные, персонализирующие, дидактические и пользовательско-коммуникативные [8, 62-67]. Такое разграничение основывается не столько на технической форме элемента, сколько на его функциональной роли в процессе получения и интерпретации словарной информации. Один и тот же цифровой механизм способен выполнять несколько функций. Например, гиперссылка одновременно обеспечивает навигацию, раскрывает системные отношения между единицами и расширяет информационное пространство словарной статьи.

Первую группу образуют поисково-навигационные средства [18, 337-341]. Электронный поиск принципиально изменяет способ доступа к словарному материалу. Пользователь получает возможность обращаться к лемме непосредственно, не просматривая алфавитную

последовательность словарных статей. При этом современный поиск может учитывать не только точное графическое совпадение, но и словоформы, варианты написания, орфографические ошибки, фрагменты слова и связанные единицы. Автоматические подсказки при вводе запроса выполняют ориентирующую функцию: система предлагает возможные леммы ещё до завершения пользовательского запроса. С лексикографической точки зрения подобный механизм имеет более глубокое значение, чем простое ускорение поиска. Он частично преодолевает зависимость пользователя от знания исходной формы единицы. В печатном словаре успешный поиск предполагает владение определёнными метаязыковыми навыками: необходимо установить лемматизированную форму, знать алфавитный принцип расположения материала и правильно определить предполагаемое написание. Электронная система способна компенсировать часть этих трудностей посредством автоматической лемматизации, прогнозирования и коррекции запроса. Тем самым поиск становится компонентом самой лексикографической интерпретации [19, 355-359].

Второй значимой группой являются гипертекстовые средства представления информации. Гипертекст разрушает жёсткую линейность традиционной словарной статьи и формирует сеть взаимосвязанных информационных объектов. Пользователь может переходить от заголовочного слова к синонимам, антонимам, производным единицам, фразеологизмам, коллокациям, тематически близким словам, грамматическим комментариям и дополнительным примерам. Вследствие этого отдельная статья перестаёт быть изолированной микроструктурой и включается в общую систему словарных связей. Особенно важна роль гипертекста при репрезентации лексико-семантических отношений. В печатном словаре указания типа «см.», «ср.» или отсылочные дефиниции фиксируют отношения между единицами, однако требуют самостоятельного поиска соответствующей статьи. В электронном ресурсе такая связь реализуется непосредственно. Нажатие на выделенную единицу переводит пользователя к релевантной информации, благодаря чему парадигматические и деривационные отношения становятся операционально доступными. Таким образом, гипертекст выполняет одновременно структурирующую, навигационную и когнитивную функции.

Отдельное направление представляет интерактивная репрезентация произносительной информации. Аудиозапись позволяет пользователю перейти от условного графического представления фонетической формы к непосредственному восприятию звучащей речи. Особенно значимым является наличие нескольких вариантов произношения, например британского и американского, а также возможности многократного воспроизведения звукового образца. В этом случае фонетическая характеристика леммы перестаёт быть статической частью статьи и превращается в доступный для повторного обращения аудиальный объект. Интерактивность аудиокомпонента проявляется также в возможности регулировать взаимодействие с материалом: пользователь самостоятельно инициирует воспроизведение, повторяет его необходимое количество раз, сопоставляет варианты и соотносит аудиоформу с транскрипцией. В учебных электронных словарях перспективным является дополнение подобного механизма записью собственного произношения и его последующим сопоставлением с нормативным образцом. Следовательно, аудиосредства расширяют функции словаря от фиксации произносительной нормы до организации активного взаимодействия с ней.

К аудиальным средствам примыкают визуальные и аудиовизуальные компоненты. Изображение, анимация, схема или видеоматериал способны уточнять значение единицы там, где исключительно вербальная дефиниция оказывается недостаточной либо когнитивно сложной. Особенно эффективно визуальное представление конкретной лексики, пространственных отношений, предметов, действий, процессов и культурно маркированных реалий. Видеофрагмент, в свою очередь, позволяет продемонстрировать не только денотативное содержание слова, но и ситуацию его реального функционирования. Однако визуальный компонент приобретает собственно интерактивный характер только тогда, когда пользователь может осуществлять с ним определённые действия: выбирать элементы изображения, раскрывать подписи, переходить к связанным леммам, воспроизводить видеоматериал или получать дополнительный комментарий. Поэтому следует разграничивать мультимедийность и интерактивность. Само наличие изображения или аудиофайла свидетельствует о мультимодальности словаря, тогда как интерактивность предполагает управляемое пользователем взаимодействие с представленными модальностями.

Следующую группу составляют корпусно-контекстуальные средства. Одним из наиболее существенных преимуществ электронного словаря является возможность динамического расширения иллюстративного материала. Традиционная словарная статья ограничивает количество примеров объёмом издания, тогда как цифровой ресурс способен связывать лемму с корпусом и предоставлять

дополнительные контексты употребления. Пользователь получает возможность наблюдать единицу в разнообразных синтаксических конструкциях, жанрах, регистрах и типичных сочетаниях. Интерактивная работа с контекстами особенно важна при описании полисемии. Значение многозначного слова раскрывается не только через дефиницию, но и через распределение по характерным окружениям. Если система позволяет выбирать отдельное значение и получать относящиеся именно к нему примеры, возникает функциональная связь между семантической структурой статьи и корпусными данными. Такой принцип обеспечивает переход от статического иллюстрирования к динамической контекстуализации значения.

С корпусными технологиями тесно связана интерактивная репрезентация коллокаций. Для пользователя важна информация не только о том, что означает слово, но и о том, с какими единицами оно регулярно сочетается. В электронной среде коллокационные связи могут представляться в виде раскрывающихся списков, тематических групп, частотных моделей или сетевых структур. Возможность перехода от коллокации к контекстам позволяет объединить системную и речевую информацию. В результате словарь отражает не изолированную лексему, а её комбинаторный потенциал.

Особый интерес представляет визуализация семантических отношений. Традиционная словарная статья преимущественно вербализует отношения между значениями и единицами, тогда как цифровая лексикография получает возможность представлять их графически. Семантические карты, сетевые модели, интерактивные графы и древовидные структуры демонстрируют взаимосвязи между синонимами, антонимами, гиперонимами, гипонимами, дериватами и тематически сопряжёнными словами. Пользователь может выбирать отдельный узел сети и переходить к соответствующей словарной статье. Подобная визуализация способствует переходу от линейного к реляционному представлению лексики. Значение воспринимается не только как совокупность признаков, зафиксированных в дефиниции, но и как позиция единицы внутри системы отношений. Особенно перспективно использование интерактивных семантических карт при представлении тематических групп, терминологических систем и словообразовательных гнёзд. Они позволяют одновременно реализовать семасиологическую траекторию «от слова к значению» и элементы ономасиологической организации «от понятия к совокупности средств его выражения».

Отдельную группу образуют средства многоуровневого раскрытия словарной статьи. Электронный формат снимает необходимость одинаково подробно показывать всю информацию каждому пользователю. Базовая статья может содержать лемму, часть речи и основное значение, тогда как дополнительные сведения – этимология, редкие значения, специальные пометы, расширенный грамматический комментарий, история употребления, коллокации – открываются по запросу. Такая архитектура реализует принцип информационной стратификации. Преимущество многоуровневого представления заключается в сочетании полноты словаря с удобством восприятия. Чрезмерно насыщенная статья затрудняет быстрое получение ответа, тогда как чрезмерное сокращение приводит к потере лингвистически значимых данных. Интерактивное раскрытие позволяет разрешить это противоречие: информация сохраняется в структуре ресурса, но её визуальная актуализация определяется конкретным пользовательским действием. Следовательно, микроструктура словаря приобретает вариативный характер.

Значительным потенциалом обладают персонализирующие средства. Традиционный словарь адресован относительно обобщённому пользователю, тогда как электронная система технически способна учитывать его уровень владения языком, историю запросов, профессиональные интересы и цели обращения. Персонализация может выражаться в сохранении избранных слов, создании пользовательских списков, истории поиска, настройке сложности определений, выборе языка интерфейса и организации повторения ранее просмотренной лексики. С лексикографической позиции персонализация означает переход от единой формы представления данных к вариативной пользовательской модели [1, 103; 2, 21]. Одна лексема может требовать различного информационного сопровождения для начинающего изучать язык, профессионального переводчика или специалиста определённой предметной области. Электронная архитектура позволяет потенциально формировать разные маршруты доступа к единой лексикографической базе. В результате адаптивность становится важным направлением развития словаря нового поколения.

К интерактивным механизмам относятся также дидактические средства, особенно характерные для учебной лексикографии. Упражнения, тестовые задания, карточки, квизы и механизмы интервального повторения превращают словарь из средства получения справочной информации в инструмент закрепления лексического материала. Существенно, что упражнения могут

автоматически формироваться на основе содержания конкретной словарной статьи: значений, примеров, коллокаций, грамматических характеристик и произносительных моделей. Подобная функциональность изменяет традиционное соотношение словаря и учебного пособия. Если печатный словарь преимущественно отвечает на уже возникший информационный запрос, интерактивный ресурс способен инициировать последующую деятельность пользователя. После ознакомления с леммой система может предложить определить значение по контексту, выбрать нормативную коллокацию, восстановить пропущенную единицу или проверить понимание семантических различий. Тем самым справочная функция дополняется тренировочной и контролирующей.

Особую разновидность представляют пользовательско-коммуникативные средства. Электронная среда допускает участие пользователей в уточнении и расширении словарного содержания посредством комментариев, предложений новых единиц, сообщений об ошибках и оценки полезности информации. В ресурсах с вики-моделью взаимодействие может распространяться на непосредственное редактирование материала.

Показательным примером реализации интерактивного принципа в современной англоязычной электронной лексикографии является Cambridge Dictionary. Его анализ позволяет установить, что цифровая форма словаря не ограничивается переносом традиционной словарной статьи в электронную среду. Лексикографическая информация организуется как многоуровневая система взаимосвязанных компонентов, доступ к которым определяется действиями пользователя. В структуре ресурса объединяются поисковые, гипертекстовые, аудиальные, корпусно-контекстуальные, семантико-навигационные и персонализирующие инструменты. Cambridge Dictionary объединяет несколько лексикографических баз, включая Cambridge Advanced Learner’s Dictionary, Cambridge Academic Content Dictionary и Cambridge Business English Dictionary, а его английская база основывается на данных Cambridge English Corpus.

Наиболее очевидным интерактивным механизмом выступает поисково-навигационная система. В отличие от печатного словаря, где пользователь должен самостоятельно определить исходную форму слова и найти её в соответствии с алфавитным принципом, электронный интерфейс обеспечивает непосредственный переход от запроса к соответствующей словарной статье. Тем самым поиск становится не внешней процедурой обращения к словарю, а частью архитектуры лексикографического ресурса. Дополнительное значение имеет возможность перехода между различными словарными базами и переводными направлениями. В результате одна поисковая единица может рассматриваться с нескольких лексикографических позиций: общеязыковой, учебной, академической, профессиональной и переводной.

Второй интерактивный компонент связан с аудиальным представлением произношения. В большинстве словарных статей Cambridge Dictionary представлены отдельные аудиозаписи британского и американского вариантов произношения, активируемые пользователем посредством соответствующих значков. Они сопровождаются транскрипцией в Международном фонетическом алфавите. Таким образом, произносительная характеристика слова существует одновременно в графической и аудиальной формах. Существенно, что аудиокомпонент обладает именно интерактивной природой: пользователь самостоятельно выбирает вариант, инициирует воспроизведение и может многократно обращаться к звуковому образцу. В традиционной словарной статье фонетическая информация декодируется через транскрипцию, тогда как электронная статья предоставляет возможность непосредственного восприятия обозначаемого транскрипцией звукового объекта.

Особенно значимым интерактивным средством является система «Smart Vocabulary». В словарных статьях она объединяет рассматриваемую единицу с семантически и тематически связанными словами и выражениями. Панель может раскрываться или скрываться пользователем; функция «See more results» предоставляет расширенный набор единиц соответствующей тематической области, причём размер слов в облаке зависит от частоты их употребления. Следовательно, традиционная словарная статья дополняется элементами тезаурусной и ономасиологической организации материала. Показательна в этом отношении статья smart. Помимо разграничения значений и частей речи, она содержит блоки «Smart Vocabulary», связывающие лексему с тематическими группами, например со словами, характеризующими интеллектуальные способности, внешний вид, эффективность и другие семантические области. Статья также включает тезаурусные связи и дополнительные примеры употребления. В результате пользователь движется не только вертикально – от леммы к её значениям, но и горизонтально – от исходной единицы к семантически связанным лексемам. Можно говорить о формировании сетевой модели словарного

значения, при которой лексема репрезентируется одновременно как самостоятельная единица и как элемент определённого лексико-семантического пространства.

Следующий уровень интерактивности формируют корпусно-контекстуальные средства. Cambridge Dictionary характеризует свою английскую словарную базу как основанную на Cambridge English Corpus и подчёркивает наличие большого количества примеров реального употребления. В отдельных статьях пользователь получает не только дефиницию, но и серию контекстов, позволяющих установить синтагматическое окружение лексемы. Например, статья *interactive* содержит определения, маркировку уровней B2 и C1, британскую и американскую транскрипцию и аудиопроизношение, типичные сочетания и примеры, а также отдельный блок примеров из Cambridge English Corpus. С лексикографической точки зрения принципиально важно, что подобная организация материала способствует переходу от дефиниционной к дефиниционно-контекстуальной модели значения. Значение устанавливается пользователем не исключительно посредством чтения словесного определения, но и посредством сопоставления дефиниции с речевыми реализациями единицы. Особенно существенна такая организация при анализе полисемии: разные значения получают собственные дефиниционные и контекстуальные блоки, благодаря чему семантическая структура становится визуально сегментированной и функционально доступной.

